SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 22 - aprel 166-7-95-Q/24 Ishtixon tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 204-son qarori hamda Samarqand viloyat hokimligining 2024-yil 19-apreldagi 94-7-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

Tumanda iste’molchilarni yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ishonchli tarzda ta’minlash, aholi xonadonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘rnatilishini va energiya tejovchi texnologiyalar keng joriy etilishini rag‘batlantirish, yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarining shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o‘tkazishni davom ettirish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 204-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Shoniyozov), tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (Z.Baitov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Ishtixon tuman bo‘limi (K.Yavkochdiyev):

quyidagi toifadagi iste’molchilar (keyingi o‘rinlarda - ehtiyojmand oilalar) uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarni qoplash bo‘yicha vaqtincha kompensatsiya (keyingi o‘rinlarda - kompensatsiya) joriy etilishi:

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalar, bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi oilalar (keyingi o‘rinlarda - Yagona reyestrga kiritilgan oilalar);

Yagona reyestrga kiritilmagan, “mahalla yettiligi” xulosasi asosida aniqlanadigan qo‘shimcha ehtiyojmand oilalar. Bunda:

“mahalla yettiligi” tomonidan shakllantirilgan qo‘shimcha ro‘yxatdagi ehtiyojmand oilalar soni tegishli mahalladagi Yagona reyestrga kiritilgan oilalar sonining 15 foizidan oshmasligi;

tuman hokimligi tegishli bo‘yicha Yagona reyestrga kiritilgan oilalar sonining 15 foizidan oshmagan holda, mahallalar kesimidagi ehtiyojmand oilalarning qo‘shimcha ro‘yxatiga o‘zgartirish kiritishi mumkinligi yuzasidan belgilangan tartib asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (B.Qulmamatov) mahalla raislari bilan birgalikda “mahalla yettiligi” tomonidan ehtiyojmand oilalar ro‘yxati to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida “Inson” ijtimoiy xizmat markaziga taqdim etilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov), AT “Xalq banki” tuman hududiy bo‘limi (U.Xasanov) Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatga muvofiq 2024-yil 1-noyabrga qadar bank plastik kartasi mavjud bo‘lmagan ehtiyojmand oilalar vakiliga belgilangan tartib asosida bepul asosda plastik kartalar ochib berilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi (M.Rabbimova) bir hafta muddatda tabiiy gaz va elektr energiyasi narxlarini oshirish, ehtiyojmand oilalarga to‘lanadigan kompensatsiya yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng qamrovli targ‘ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmasiga yuklatilsin.

Ishtixon tumani hokimi **F.K.Ruziyev**